

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA


YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI:
2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN MOBIL TELEFON



Martini Cooper (1973)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIJ O'LIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OULIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



NOYABR
№58

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
1-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-1**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 58-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Давлат бошқаруви – Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети «Беш муҳим ташаббус» маркази раҳбари)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар – Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Avezov Umidjon Toshpulatovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM HUQUQIY MASALALARI..... 7



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM HUQUQIY MASALALARI

Avezov Umidjon Toshpulatovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: avezovumidjon@mail.ru

ANNOTATSIYA:

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xususan, soha yetakchi olimlari qarashlari va huquqiy tahlillar natijasida muallif kasaba uyushmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish lozimligini qayd etadi. Bunda muallif kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy funktsiya va prinsiplarini huquqiy asoslarini takomillashtirish, birlashmalarning huquqlariga rioya etilishi kafolatlarini kuchaytirish, shuningdek kasaba uyushmalari tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha o‘zining asosli takliflarini ilgari surilgan. Shu asosida muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasining ma‘lum qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. kasaba uyushmalari, kasaba uyushma organlari, jamoatchilik nazorati, ustuvor yo‘nalishlar, tashkiliy-huquqiy asoslar, mehnat nizolari, mediatsiya.

O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari mazkur faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi takomillashtirish vazifalaridan kelib chiqadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va faollariga tabrigida quyidagilarni alohida ta‘kidlagan edi: “Biz bundan buyon ham bandlikni ta‘minlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohalarida ijtimoiy sheriklik imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga oid tashabbuslaringizni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, korxonalar va tashkilotlarda xodimlarning kasbiy, mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta‘minlash tizimini yanada kuchaytirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda” [1].

Kasaba uyushmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari va dolzarb masalalari quyidagilardan iborat:

- kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy funktsiya va prinsiplarini huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining huquqlariga rioya etilishi kafolatlarini kuchaytirish;
- kasaba uyushmalarini, ularning birlashmalarini, bo‘linmalarini hamda boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibini takomillashtirish;
- kasaba uyushmalarining xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini hal qilishdagi huquqlarini kengaytirish;
- kasaba uyushmalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish samaradorligi oshirish;
- kasaba uyushmalari xodimlar, ish beruvchilar, davlat organlari o‘rtasida xodimlarning, ish beruvchilarning va davlatning ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari bo‘yicha manfaatlarini kelishib olishni ta‘minlashga qaratilgan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagi asosiy prinsiplari belgilangan: qonuniylik; ixtiyoriylik; kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik; mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish; teng



huquqlilik; oshkoralik va ochiqlik [2].

Qonunchilikka taklif sifatida yuqoridagi prinsiplar bilan bir qatorda, kasaba uyushma organlari va kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan moliyaviy intizomga rioya qilinishi, kasaba uyushma tashkilotlari va kasaba uyushma organlari ishida kollegiallik hamda kasaba uyushma organlariga saylangan xodimlarning shaxsiy javobgarligi, kasaba uyushma tashkilotlarining birdamlik, o‘zaro yordam va mas’uliyat tamoyilini ham qonunchilikda aks ettirish lozim.

Birinchiidan, kasaba uyushma organlari va kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan moliyaviy intizomga rioya qilinishi prinsipi kasaba uyushmasi moliyaviy siyosatining birligini ta’kidlaydi va moliyaviy faoliyatning boshlang‘ich nuqtasini shakllantiradi. Bu tamoyil amaldagi qonunchilik normalari va kasaba uyushmasi ustavidan kelib chiqadi hamda bu kasaba uyushmasida nafaqat moliyaviy, balki huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun asosdir. Moliyaviy intizom, smetalarni tuzish va ularni bajarish jarayonlari kasaba uyushmasining mahalliy normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi va birinchi navbatda kasaba uyushmalari saylangan ishchilari va faollarining malakasini ko‘rsatadi. Bu prinsip kasaba uyushmalari mablag‘larining iqtisodiy, samarali va maqsadga muvofiq sarflanishini tushunish uchun muhimdir.

Ikkinchiidan, kollegiallik tamoyilining amalga oshirilishi kasaba uyushmasi a‘zolariga kasaba uyushmalari tashkilotlarini boshqarishda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Bu prinsip qarorlar qabul qilishda kollegiallikni va ularni amalga oshirish oqibatlari uchun shaxsiy javobgarlikni uyg‘unlashtiradi. Kollegial kasaba uyushmasi organi a‘zolari huquqlari va ularning majburiyatlari o‘rtasida muvozanatni o‘rnatadi.

Kasaba uyushmalari amaliyotida ushbu tamoyilning amalga oshirilishi quyidagilarni ta‘minlaydi:

- muvozanatli qarorlar qabul qilish;
- qarorlar qabul qilishda ixtiyoriylikni istisno qilish;
- kasaba uyushma organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini tasdiqlash;
- noqonuniy qarorlar qabul qilish ehtimolini kamaytirish;
- kasaba uyushmalari kadrlari va saylangan kasaba uyushma faollarining shaxsiy javobgarligini oshirish.

Uchinchiidan, kasaba uyushma tashkilotlarining birdamlik, o‘zaro yordam va mas’uliyat prinsipining belgilanishi shuning uchun muhimki, kasaba uyushmasi yaxlit bir butun bo‘lib, barqaror ierarxik tuzilishga, individual a‘zolikka asoslangan va tizimli bo‘g‘inlar o‘rtasidagi aniq munosabatlar tizimiga egaligini anglatadi. Bu tamoyil kasaba uyushmasi ustavining me‘yorlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilishini va kasaba uyushmasining barcha a‘zolari, kasaba uyushma tashkilotlari va ular saylanadigan organlariga nisbatan qo‘llanilishini belgilaydi.

Kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining huquqlariga rioya etilishi kafolatlari sifatida “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunda kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining faoliyatiga aralashmaslik kafolatlari, kasaba uyushmalari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, kasaba uyushmalarining mulk huquqi kafolatlari, kasaba uyushmalari organlariga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan xodimlar uchun kafolatlar, kasaba uyushmalari organlariga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan xodimlar uchun kafolatlar, kasaba uyushmalari organlariga saylangan xodimlar uchun mehnatga oid qo‘shimcha kafolatlar, ish beruvchining kasaba uyushmalari faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir majburiyatlari kabilar belgilangan.

Mazkur tadqiqot ishi xulosalari asosida kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining faoliyatiga aralashmaslik kafolatlarini belgilashga oid taklif 2019-yil 6-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-588-son Qonuni 12-moddasida foydalanilgan hamda mazkur taklifning amalga oshirilishi davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, ish beruvchilar tomonidan kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining huquqlariga rioya etilishini ta‘minlashga oid mexanizmlarini qonunchilikda belgilashga xizmat qildi.

Shuningdek, ish beruvchining kasaba uyushmalari faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir majburiyatlarini belgilashga doir taklif, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-588-son Qonuni 18-moddasida foydalanilgan Ushbu taklifning amalga oshirilishi kasaba uyushmalari organlari tarkibiga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan shaxslarga kasaba uyushmalariga oid majburiyatlarini samarali bajarishini ta‘minlashga xizmat qilgan [3].

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunining



12-moddasida kasaba uyushmalarining mulk huquqi kafolatlari belgilangan bo‘lib, bu borada kasaba uyushmalarining mulkiy huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq. Mazkur masalada xorijiy tajribaga nazar tashlasak, Rossiya Federatsiyasining “Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining kafolatlari va huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunida kasaba uyushmalarining moddiy manbalari ustidan moliyaviy nazorat amalga oshirilmasligi, kasaba uyushmalari mustaqil moliyaviy faoliyati cheklanishiga yo‘l qo‘yilmasligi va kasaba uyushmalarining mol-mulki olib qo‘yilishi faqatgina sud tartibida amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur huquqiy qoidalarni milliy qonunchilikda aks ettirish maqsadga muvofiq (MANBA)

Ma‘lumki, kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, shuningdek, yuridik shaxs bo‘lgan bo‘linmalari hamda boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran tashkil etilgan hisoblanadi. Kasaba uyushmalarini tuzishda nafaqat muassislar tarkibiga, balki ularning soniga nisbatan ham alohida talablar mavjud bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasiga muvofiq jamoat birlashmasi kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning

13-bandida kasaba uyushmalarining tashabbuskorlariga alohida talab belgilangan bo‘lib, fuqarolar ro‘yxatida kamida uch ming kishi bo‘lishi lozimligi belgilangan [4]. Bizning fikrimizcha, mazkur talabni xorijiy tajriba va milliy qonunchilikda boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlarga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda qisqartirgan holda fuqarolar ro‘yxatida kamida ming kishi bo‘lishi lozimligini belgilash maqsadga muvofiq.

Mazkur taklif kasaba uyushmalarining xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yo‘lga qo‘yilgan, kasaba uyushmalarining raqobatini kuchaytirish imkoniyatini beradi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021 – 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmonida belgilangan fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish bo‘yicha vazifalardan biri sifatida kasaba uyushmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda ularning a‘zolari soniga qo‘yilgan talabni qayta ko‘rib chiqish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi [5].

Shuningdek, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasiga ko‘ra kasaba uyushmalarini, ularning birlashmalarini, shuningdek, yuridik shaxs bo‘lgan bo‘linmalarini va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga vakolatli davlat organi kasaba uyushmalarini, ularning birlashmalarini, bo‘linmalarini va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining faoliyatini nazorat qilish va ro‘yxatdan o‘tkazishni rad qilish huquqiga ega emasligi haqida qoidani kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur taklif kasaba uyushmalari faoliyatida mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsipini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 32-moddasiga binoan, kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo‘linmalari va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlari o‘z ustav faoliyatini amalga oshirish uchun davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilardan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlari masalalari yuzasidan bepul axborot olish huquqiga ega [6]. Shu bilan birga, kasaba uyushmalarining olingan axborotni davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilarni taklif etgan holda muhokama qilishga bo‘lgan huquqini belgilash hamda davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanish huquqlarini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilar tomonidan so‘ralgan axborot taqdim etilmagan yoki ishonchsiz axborot berilgan xolatlarda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi haqida qoidani belgilash maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidan borar ekan, mamlakat hayotida takomillashgan jamoatchilik nazoratisiz fuqarolik jamiyati mavjud bo‘la olmaydi. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotining barcha jabhalarida kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi — fuqarolik jamiyatining eng muhim shartidir. Dunyo mamlakatlari qatorida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib borayotgan respublikamiz demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish sari salmoqli qadamlar qo‘ymoqda.

Ma‘lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati, mazmuni va maqsadi u olib boradigan funksiyalar va faoliyat yo‘nalishlarida ifodalanadi. Shu jumladan, kasaba uyushmalarining funksiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari



orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan olganda, mustaqillik yillarida jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari ham jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazib kelmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining subyekti, obyekti, shakllari va boshqa muhim jihatlarini belgilab beruvchi “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/4750>
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.
4. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 11-son, 126-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021 – 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6181-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2021 y., 06/21/6181/0182-son.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000